3. Birinchi bog‘lamda 25 ta, ikkinchisida esa 20 ta daftar bor. Ikkinchi bog‘lamda birinchi bog‘lamdagiga qaraganda nechta kam daftar bor? Birinchi bog‘lamda ikkinchi bog‘lamdagiga qaraganda nechta ko‘p daftar bor?

4. Ko‘pburchaklarning tomonlarini chizg‘ich yordamida o‘lchang:

5.

30 + 24	80 + 12	60 + 32	53 + 10
80 + 17	70 + 17	60 + 24	40 + 16
20 + 15	30 + 13	70 + 30	60 + 15

http://eduportal.uz

Massa o‘lchov birligi: kilogramm

1.

Rasmda berilgan tarozi toshlarining massasi necha kilogrammligini ayting.

2.

Rasmga qarab tuz va unning massasi necha kilogrammligini ayting.

3. Qovoq 8 kg, tarvuz undan 2 kg kam. Tarvuzning massasi necha kilogramm?

Qovoq – 8 kg

Tarvuz – ?, 2 kg kam

8		2	=	

4. Misollarni tushuntirib yeching:



5. Rasm bo‘yicha masala tuzing va uni yeching:

Qovun – 8 kg

Tarvuz – ?, 2 kg og‘ir



http://eduportal.uz

6. Jadval bo‘yicha masala tuzing va uni yeching:

Bor edi	Ishlatildi	Qoldi
23 kg piyoz	3 kg	? kg

7. Olmali yashikning massasi 10 kg, nokli yashik esa undan 3 kg yengil. Nokli yashikning massasi necha kilogramm?

10 kg

?

3 kg yengil

8. Jadvaldan javobi bir xil bo‘lgan misollarni toping:

40 + 7	50 + 30	95 − 5	38 − 8
83 − 3	20 + 27	36 − 6	40 + 10
60 + 9	79 − 10	60 + 30	54 − 4

9. Birinchi qafasda 10 ta, ikkinchi qafasda esa birinchidagidan 3 ta kam to‘tiqush bor. Ikkinchi qafasda nechta to‘tiqush bor?

1-qafasda – 10 ta to‘tiqush

2-qafasda – ?, 3 ta kam

10. 70 + 30 27 − 20 30 + 30

86 − 60 49 + 10 57 − 20

http://eduportal.uz

Sig‘im o‘lchov birligi: litr

1. Bir litrli, uch litrli, besh litrli bankaga necha stakan suv sig‘ishini o‘lchab ko‘ring.

2. Chelakka 10 *l* suv sig‘adi. Agar chelakda 6 *l* (4 *l*, 7 *l*) suv bo‘lsa, unga yana necha litr suv quyish mumkin?

3.

10 + 3 □ 9	19 − 9 □ 10	36 + 2 □ 40
18 − 8 □ 5	15 + 4 □ 19	19 − 9 □ 20

4. Rasmlar asosida masalalar tuzing va ularni yeching:

6 kg 3 kg

? kg

6		3	=	

10 *l* ? *l*

17 *l*

1	7		1	0	=	

5. Birinchi bidonda 10 *l*, ikkinchisida undan 3 *l* kam paxta yog‘i bor. Ikkinchi bidonda necha litr yog‘ bor?

6.

20 + 2	35 + 3	19 + 1	24 − 4
17 − 7	16 − 6	10 + 6	23 + 5

http://eduportal.uz

7. Tushuntirib yeching:

54 + □	100	70 + □
□ + 60		□ + 20
46 + □		80 + □

8. Masalalar tuzing va ularni yeching:





9. Birinchi bidonda 10 *l*, ikkinchisida undan 4 *l* ortiq sut bor. Ikkala bidonda necha litr sut bor?

10.



3 + 2 = 5

□ + 2 = 6

□ + 2 = 7

□ + 4 = 8

□ + 5 = 9

http://eduportal.uz

O‘tilganlarni takrorlash

1. Maktab oshxonasiga 30 ta katta va 14 ta kichkina choynak keltirildi. Maktab oshxonasiga hammasi bo‘lib nechta choynak keltirilgan?

2. Javobi 90 chiqishi uchun qaysi tomondan yurish kerak?



3. Bochkada 10 chelak suv bor edi. Gullarni sug‘orish uchun 7 chelak suv olindi. Bochkada necha chelak suv qoldi?

4. Figuralarning qaysi birida burchak yo‘q?



5. Amal ishoralarini tengliklar to‘g‘ri bo‘ladigan qilib qo‘ying:

90 □ 4 = 94	57 □ 7 = 50	60 □ 2 = 62
40 □ 9 = 49	86 □ 6 = 80	73 □ 3 = 70

http://eduportal.uz

Geometrik figuralar. Mantiqiy tushunchalar

Narsaning oynadagi aksi

1. Tasvirlangan narsalarning aksini tushuntiring:

2. Yugurish musobaqasiga 46 nafar, uzunlikka sakrash bo‘yicha esa 20 nafar o‘quvchi qatnashdi. Sport musobaqasiga hammasi bo‘lib necha nafar o‘quvchi qatnashdi?

3. Tasvirlangan rasmlarning aksini davom ettirib, daftaringizga chizing va bo‘yang.



4.

28 − 10	50 + 17	36 − 20	60 + 13
40 + 14	68 − 60	20 + 19	57 − 20

http://eduportal.uz

Simmetriya

1. Tasvirlangan rasmlardan simmetriya o‘qini topib ko‘rsating:





2. Anvar 12 varaqli daftarning 7 ta varag‘ini to‘ldirdi. Daftarning to‘ldirilmagan nechta varag‘i qoldi?

3. Har bir figuraning qismlari qanday hosil bo‘ladi, ulardagi simmetriya o‘qini topib ko‘rsating.



4. Quyidagi sonlarning har birida nechta o‘nlik va nechta birlik bor?

39, 61, 42, 57, 63, 55, 46, 25, 38, 70

5.

20 + □ = 27	65 − □ = 60	40 + □ = 48
17 − □ = 10	50 + □ = 56	72 − □ = 70

http://eduportal.uz

Simmetrik figuralar. Nuqtalar, kesmalar, ko‘pburchaklarning simmetrikligi

1. To‘rtburchakni nechta qismga ajratish mumkin?



2. Birinchi savatda 48 ta, ikkinchisida undan 8 ta kam apelsin bor. Ikkala savatda hammasi bo‘lib nechta apelsin bor?

3. Rasmda tasvirlangan barcha figuralarning nomini ayting va ularni bir so‘z bilan nima deb atash mumkin? Har bir figura necha qismdan iborat?



4. Kim marraga tez yetadi?

18 + 10 → 57 − 7 → 67 + 3 → 70 + 9

60 − 40 → 28 + 20 → 70 + 8 → 68 − 8

5.

40 + 17	80 − 30	30 + 30
60 − 20	50 + 10	70 − 40
50 + 19	90 − 60	50 + 50

http://eduportal.uz

Bir yoki bir nechta simmetriya o‘qiga ega figuralarga misollar

1. Kvadratning qismlari qanday hosil qilingan?



2. Har bir qism qanday hosil bo‘ldi?



3. Traktorning bakida ish boshlanganda 37 *l* yonilg‘i bor edi, ish oxiriga kelib 7 *l* yonilg‘i qoldi. Necha litr yonilg‘i ishlatilgan?

4. Har bir bo‘lak qanday hosil bo‘lganini tushuntiring:



5. Birinchi qatorga juft sonlarni, ikkinchi qatorga toq sonlarni o‘sib borish tartibida yozing:

20, 31, 27, 34, 45, 16, 57, 68, 86, 75.

http://eduportal.uz

Narsaning shakli

1. Rasmda tasvirlangan narsalarning nomini ayting:

2. Maktab oshxonasiga 14 kg un keltirildi. 4 kg undan somsa, 6 kg undan shirin kulcha pishirildi. Oshxonada necha kilogramm un qoldi?

3.

96 = 90 + 6	44 = 40 + □	22 = 20 + □
66 = 60 + □	48 = 40 + □	88 = 80 + □

4. Har bir rasmda nechta uchburchak, nechta to‘rtburchak bor?

5. Shunday son qo‘yingki, tenglik to‘g‘ri bo‘lsin:

20 + □ = 27	48 − □ = 40	80 + □ = 86
36 − □ = 30	50 + □ = 57	72 − □ = 70

http://eduportal.uz

Tushunchalar: bir xil shaklda, turli shaklda

1. Rasmdagi shakllarning nomlarini ayting. Bu shakllar qanday figuralardan hosil bo‘lgan?

1)



2)



2. Misollarni qulay usulda hisoblang:

$58+1=(50+8)+1=50+(8+1)=59$

$46+1$	$52+7$	$55+4$	$56+3$
$37+1$	$48+1$	$24+5$	$63+6$

3. Salim va Karim 90 ta stol yasashi kerak edi. Salim 28 ta, Karim esa 21 ta stol yasadi. Salim va Karim yana nechta stol yasashlari kerak?

4. $(20+20)+7$ $\quad$ $(60-20)+5$

$(70-30)+6$ $\quad$ $(50+30)+9$

http://eduportal.uz

1. Misollarning javobini toping:



2. 1) 29, 39, 49, 59, 69, 79, 89, 99 sonlaridan bitta keyin keladigan qo‘shni sonlarni ayting;

2) 90, 80, 70, 60, 50, 40, 30, 20, 10 sonlaridan bitta oldin keladigan qo‘shni sonlarni ayting;

3) 91, 92, ..., ..., sonlarini 100 gacha to‘ldiring.

3. Rasm va qisqa yozuv bo‘yicha masala tuzing va uni yeching:

Chelakda – 14 kg

Savatda – ? kg, 6 kg og‘ir



4. Tushirib qoldirilgan sonlarni ayting:

10	20			50		70		90	

5.

70 − 30	50 + 40	60 − 30	70 + 20
40 + 40	90 − 40	30 + 20	70 − 10

http://eduportal.uz

1. Savatchalarning rangiga qarab olmalarni joylashtiring:

2. Do‘konda 45 ta muzlatgich bor edi. Tushgacha 10 ta, tushlikdan keyin 5 ta muzlatgich sotildi. Do‘konda sotiladigan yana nechta muzlatgich qoldi?

3.

30 + 8	76 − 6	20 + 7
38 − 8	40 + 9	45 − 5

4. Misollarni tushuntirib yeching:



5. 80, 60, 40, 50, 20 sonlarining har birida nechta o‘nlik bor?

6.

40 + 4 □ 18	22 − 2 □ 30	11 + 9 □ 12
33 − 3 □ 14	80 + 5 □ 90	44 − 4 □ 40
70 + 5 □ 75	36 − 6 □ 25	40 + 8 □ 54

http://eduportal.uz

Sodda yassi va fazoviy figuralar

1. Quyidagi rasmda kvadrat, uchburchak, doira, beshburchak tasvirlangan. Ular **yassi** figuralarga misol bo‘ladi. Figuralarning nomini ayting.

1)
2) 
3) 
4)

2. 1) Kvadratning nechta tomoni va nechta burchagi bor? Beshburchakda-chi?

2) Uchburchakning nechta uchi va nechta burchagi bor?

3. Rasm va qisqa yozuv bo‘yicha masala tuzing va uni yeching:

Bor edi – 20 kg xurmo
Sotildi – 10 kg xurmo
Qoldi – ? kg xurmo

4. Shakllarni daftaringizga chizing va ularni bo‘yang:





5.

50 + (6 + 3)	42 – (9 – 7)	20 + (9 – 5)
60 – (8 + 2)	30 + (6 + 4)	85 – (3 + 2)

http://eduportal.uz

6. Quyidagi rasmda to‘g‘ri to‘rtburchak, oltiburchak va to‘rtburchaklar tasvirlangan. Ular **yassi** figuralar.

1)
2)
3) 
4)

7. Oltiburchakning nechta uchi va nechta tomoni bor? To‘g‘ri to‘rtburchakda-chi?

8. O‘yla, izla, top!

9. Feruz otasi bilan dehqon bozoridan 18 kg piyoz, undan 9 kg kam kartoshka sotib olishdi. Ular necha kilogramm kartoshka sotib olishgan?

10. Qog‘ozni buklash yo‘li bilan qanday figuralar hosil qilish mumkin?



11.

48 + 30	57 − 20	63 + 20
37 − 20	57 + 20	68 − 40
25 + 10	75 − 30	56 + 14

http://eduportal.uz

1. Kub, shar, silindr **fazoviy** figuralarga misol bo‘la oladi. Har bir raqamga mos kelgan figuralarning nomini ayting:

1) 

2) 

3) 

2.

20 + ◯ = 28

◯ − 5 = 30

50 + ◯ = 56

72 − ◯ = 70

◯ + 4 = 34

92 − ◯ = 90

3. Bu figuralar nima deb ataladi? Ular orasidan to‘g‘ri to‘rtburchaklarni toping:

1) 

2) 

3)

4)

5)

6)

7)

8)

4. Bo‘sh kataklarga shunday son qo‘yingki, tenglik to‘g‘ri bo‘lsin:

50 + □ = 58 86 − □ = 80 90 + □ = 92

73 − □ = 70 20 + □ = 25 42 − □ = 40

http://eduportal.uz

5. Konus, piramida, parallelepiped bular **fazoviy** figuralar. Har bir raqamga mos kelgan figuralarning nomini ayting:

1) 

2) 

3)

6. Maktabdagi musiqa to‘garagiga 29 nafar, kashtachilik to‘garagiga esa 21 nafar o‘quvchi qatnashmoqda. Ikkala to‘garakka hammasi bo‘lib necha nafar o‘quvchi qatnashmoqda?

7.

22 + 22 = □□	66 − 33 = □□	24 + 24 = □□
44 − 22 = □□	33 + 33 = □□	48 − 24 = □□

8. Rasm asosida masala tuzing va uni yeching:

20 kg ? kg

40 kg

9. Sonlarni xona qo‘shiluvchilari yig‘indisi ko‘rinishida ifodalang:

73 = 70 + 3	35 = 30 + □	55 = 50 + □
69 = 60 + □	44 = 40 + □	88 = 80 + □
82 = 80 + □	58 = 50 + □	92 = 90 + □

https://eduportal.uz

10. Quyidagi figuralar orasidan: 1) yassi figuralarni; 2) fazoviy figuralarning tartib raqamlarini ayting:



11. Bir ustunga sonlar yig‘indisini, ikkinchi ustunga sonlar ayirmasini yozing va uni yeching:

40 + 20	70 − 30	30 + 20
50 − 20	20 + 10	90 − 40

12. Issiqxonada 70 tup qizil va oq atirgul ko‘chati ekilgan edi. Qizil atirgullar 20 tup bo‘lsa, oq atirgullar nechta?

13. 96, 38, 67, 85, 24 sonlarining har birida nechta o‘nlik va nechta birlik bor?

14. Sanoq cho‘pdan oltita kvadrat zina shaklida joylashtirilgan. Shu cho‘plardan ikkitasini shunday olingki, to‘rtta kvadrat qolsin?



15.

20 + (65 − 5)	(70 − 30) + 9
30 + (42 − 2)	(40 + 40) + 2
80 + (22 − 2)	(50 − 50) + 8

http://eduportal.uz

Uzunlik birliklari: detsimetr, metr. Ular orasidagi munosabat

100 sm = 1 m	10 sm = 1 dm	1 m = 10 dm

Bu tasmaning uzunligi 10 sm yoki 1 dm ga teng.



1. Stolning balandligi 8 dm, stulning balandligi esa 5 dm. Stol stuldan necha detsimetr baland?

2. 40 sm − 20 sm 50 sm + 10 sm

10 dm + 30 dm 60 m − 20 m

3. Ko‘chaning kengligi 8 m. Undagi yo‘lka va ariqning kengligi 4 m bo‘lsa, mashina yuradigan yo‘lning kengligi qancha?

4. 19 $\xrightarrow{-}$ 9 $\xrightarrow{+}$ 4 $\xrightarrow{-}$ 10 $\xrightarrow{+}$ 5 $\xrightarrow{=}$ **9**

5. Oldin bir xonali, keyin ikki xonali sonlarni o‘sish tartibi bilan yozing:

16, 81, 8, 46, 9, 64, 5, 63, 28, 4, 17, 3, 7, 18.

6.

10 + 9	80 + 7	22 − 2	44 − 4
20 + 7	80 + 9	18 − 8	28 − 8

http://eduportal.uz

7. Azim bilan Zafar anhorda cho‘milmoqda. Qirg‘oqqa chiqish uchun Azim 17 m, Zafar esa o‘rtog‘iga qaraganda 7 m kam suzishi kerak. Zafar qirg‘oqqa chiqishi uchun necha metr suzishi kerak?



8. 40 sm + 10 sm 80 dm − 60 dm
70 sm − 20 sm 30 sm + 10 sm
50 dm + 10 dm 40 dm − 20 dm

9. Qanday figuralarni ko‘ryapsiz? Nomlarini ayting:

1) 
2) 
3) 
4)
5)

10. Birinchi kesmaning uzunligi 14 sm, ikkinchi kesmaning uzunligi esa undan 4 sm qisqa. Ikkinchi kesmaning uzunligini toping.

11. 50 sm + 30 sm 70 dm − 20 dm
90 dm − 40 dm 30 sm + 20 sm
40 dm + 20 dm 60 sm − 20 sm

http://eduportal.uz

Xossalariga asosan narsalar to‘plamini bir nechta to‘plamlarga ajratish

1. Rasm asosida berilgan gullar to‘plami haqida nimalarni bilib oldingiz?

2. Metroning birinchi vagonida 48 nafar, ikkinchisida undan 17 nafar kam yo‘lovchi bor. Ikkala vagonda necha nafar yo‘lovchi bor?

3. To‘plamdagi geometrik figuralarni turlariga ko‘ra to‘plamlarga ajrating:



4.

30 + 13	65 − 60	50 + 25
42 − 40	44 + 30	32 − 30
43 + 10	57 − 50	28 + 20

http://eduportal.uz

5. Poliz mahsulotlarini turlariga ko‘ra bir nechta to‘plamga ajrating:



6. Maktab sport to‘garagi uchun 39 ta futbol va basketbol to‘pi keltirildi. Ulardan 19 tasi futbol to‘pi bo‘lsa, nechta basketbol to‘pi keltirilgan?

7. Misollarni tushuntirib yeching:

25 + 10	37 − 10	50 + 28	38 − 18
26 − 10	40 + 19	70 − 50	65 + 20

8. Ranglarga qarab, guruhlarga bo‘lingan holda misollarni yeching:

38 − 18	30 + 9	26 − 16	60 + 4
70 + 6	28 − 18	60 + 5	48 − 28
47 − 27	50 + 7	58 − 28	40 + 3

9. Kesmalarni taqqoslang. Birinchi kesma ikkinchi kesmadan qancha qisqa?



☐ sm

☐ sm

10. (56 − 6) + 10 (90 − 20) + 6

(24 − 4) + 20 (50 + 30) + 4

http://eduportal.uz

11. Meva mahsulotlarini turlariga ko‘ra bir nechta to‘plamga ajrating:

12. Bolalar oromgohida 58 nafar o‘g‘il bola, undan 28 nafar kam qiz bola dam oldi. Oromgohda hammasi bo‘lib necha nafar o‘quvchi dam olgan?

13. Misollarning yechilishini tushuntiring:

40 → + → 8 → − → 8 → + → 20 → + → 9 → ?

14. Chizmada qanday figuralarni ko‘ryapsiz. Ularni alohida-alohida daftaringizga chizing va nomlarini ayting.





15. Misollarni tushuntirib yeching:

20 + 7	84 − 4	60 + 7	93 − 3
48 − 8	50 + 6	32 − 2	30 + 5

http://eduportal.uz

Namuna bo‘yicha ketma-ketlikni davom ettirish

1. Misollarni tushuntirib yeching:

50 + 20 → ☐ − 30 → 40 + ☐ → 80 − ☐ → 70 + ☐ → 100

2. Bog‘bon bir tup xurmodan 30 kg, ikkinchi tup xurmodan esa 9 kg ortiq hosil yig‘ib oldi. Bog‘bon ikkala tup xurmodan necha kilogramm xurmo yig‘ib olgan?

3.

40 + ◯ = 45	58 − ◯ = 50
◯ − 6 = 30	60 + ◯ = 62
20 + ◯ = 27	79 − ◯ = 70

4. Kim marraga tez yetadi?

30 + 25 → 55 − 5 → 50 + 10 → 60 + 40

40 + 25 → 65 − 10 → 55 + 20 → 75 + 25

?

5. Misollarni tushuntirib yeching:

50 + 5	17 − 10	50 + 20	70 − 40
46 − 6	40 + 12	80 − 50	30 + 30
20 + 9	90 − 70	20 + 20	80 − 50

http://eduportal.uz

6. Namuna bo‘yicha bajaring:

20 = 10 + 10	50 = 30 + □□	80 = 50 + □□
30 = 20 + □□	60 = 50 + □□	90 = 70 + □□
40 = 30 + □□	70 = 40 + □□	100 = 50 + □□

7. «Bilimdon» jurnaliga 25 nafar, «G‘uncha» jurnaliga esa undan 4 nafar ortiq o‘quvchi obuna bo‘ldi. Har ikkala jurnalga necha nafar o‘quvchi obuna bo‘lgan?

8. Misollarni tushuntirib yeching:



9. Figuralarni daftaringizga chizing va ularning tomonlarini chizg‘ich yordamida o‘lchang:

10.

20 + 8 □ 35	45 − 5 □ 40	50 + 8 □ 74
39 − 9 □ 27	70 + 3 □ 62	66 − 6 □ 60
50 + 2 □ 72	88 − 8 □ 90	90 + 2 □ 99

http://eduportal.uz

Sonli ifodalar. Jadvallar. Geometrik figuralar

Sonli ifodalar

1. 25+3, 25−3 − bular sonli ifodalar yoki **ifodalar** deb ataladi.

Ifodada ko‘rsatilgan amallarning natijasi ifodaning qiymati deyiladi.

25+3=28 25 bilan 3 sonining yig‘indisi 28 ga teng.

25+3 **ifoda**, 28 **ifodaning qiymati.**

2. Quyidagi ifodalarni hisoblang:

21+ 8	34+4	43+5
49−40	87−7	55−5

3. Jadval asosida masala tuzing va uni yeching, hosil bo‘lgan ifodalarni tushuntiring:

Bor edi	Ishlatildi	Qoldi
9 kg va 7 kg	6 kg	? kg

9+7, 9−7, (9+7)−6 ifodalarning qiymatini hisoblab, masalaning yechimini toping.

4.

37+ 2	48− 3	46+ 4	69− 5
37+20	48+30	46+40	69−50

http://eduportal.uz

5. Botirda 28 ta yong‘oq bor. Ukasidagi yong‘oqlar akasinikidan 8 ta kam. Aka-ukada hammasi bo‘lib nechta yong‘oq bor?

Quyidagi ifodalar nimani bildiradi?

$28-8$ $\qquad$ $28+(28-8)$

6.

$42+\square=72$	$38-\square=30$
$\square-2=60$	$60+\square=90$
$30+\square=60$	$25-20=\square$

7. Rasmga mos ifoda tuzing va uni yeching:



8. Ifodalarni hisoblang:

26 va 4, 38 va 20 sonlarining yig‘indisi.

54 va 4, 67 va 20 sonlarining ayirmasi.

9. Amal ishoralarini tengliklar to‘g‘ri bo‘ladigan qilib qo‘ying:

$50\square2=52$	$75\square5=70$	$30\square4=34$
$29\square9=20$	$60\square8=68$	$83\square3=80$
$30\square8=38$	$57\square7=50$	$40\square6=46$

http://eduportal.uz

10. Ifodalarning qiymatini toping.

47 + 2	58 + 20	16 + 3
69 − 30	45 − 10	38 − 8

11. Jadvaldan javobi bir xil bo‘lgan misollarni toping:

99 − 9	87 − 7	40 + 10	90 − 30
56 − 6	89 + 1	45 − 5	20 + 20
79 + 1	75 − 5	30 + 30	80 − 10

12. Yangi qurilgan binoning birinchi qavatida 24 ta, ikkinchi qavatida esa 26 ta xona bor. Ikkinchi qavatda birinchisiga qaraganda nechta ko‘p xona bor?

13. Masala tuzing va uni yeching:

Qovoqning massasi necha kilogramm? Tarvuzning massasi-chi?

14. Ikkita qo‘shni qo‘shiluvchini yig‘indi bilan almashtirib, qulay usul bilan yeching:

50 + 20 + 8 90 − 40 + 7 30 + 30 − 4

15. Sonlarni xona qo‘shiluvchilari yig‘indisi ko‘rinishida ifodalang:

45 = 40 + 5	63 = 60 + □	29 = 20 + □
59 = 50 + □	77 = 70 + □	38 = 30 + □
87 = 80 + □	26 = 20 + □	94 = 90 + □

http://eduportal.uz

Tarkibli masalalar

1. Velosipedchilar poygasida Karim belgilangan manzilga 30 minutda, Salim esa 35 minutda yetib keldi. Karim Salimdan necha minut oldin yetib kelgan? Salim Karimdan necha minut keyin yetib kelgan?

2. (70 + 20) + 7 (80 − 40) + 9
(90 − 50) + 5 (30 + 30) + 8

3. Rasm asosida quyidagi usulda yechiladigan masalalar tuzing:
10 *l* + 5 *l*, 10 *l* + 2 *l*, 5 *l* + 2 *l*, 10 *l* − 5 *l*.

10 *l*

5 *l*

2 *l*

4. Quyidagi shartlarga ko‘ra masalalar tuzib yeching:

1) bor edi – 80 ta g‘oz
yana olib kelindi – 15 ta g‘oz } ? ta

2) bor edi – ? ta
keyin olib kelindi – 15 ta g‘oz } 95 ta

3) bor edi – 80 ta g‘oz
olib kelindi – ? ta } 95 ta

5.

90 + 2	75 − 5	80 + 5	96 − 6
88 − 8	60 + 4	23 − 3	50 + 7
40 + 3	57 − 7	59 + 1	69 − 9

http://eduportal.uz

6. Pomidor solingan yashikning massasi 20 kg, sabzi solingan yashik esa undan 4 kg og‘ir. Sabzi solingan yashikning massasi necha kilogramm?

7. Manzilga yetib borish uchun qaysi yo‘l to‘g‘ri?



8. Qisqa yozuv bo‘yicha masala tuzing va uni yeching:

Shaxmat – 20 ta
Shashka – ?, 5 ta ortiq
? ta

9. Misollarni tushuntirib yeching:



10. Sada daraxtining balandligi 9 m, terak sadadan 3 m baland. Terak necha metr?

11. Shunday son qo‘yingki, tenglik to‘g‘ri bo‘lsin:

20 + □ = 28	59 − □ = 50	80 + □ = 88
28 − □ = 20	50 + □ = 59	88 − □ = 80

http://eduportal.uz

12. Bir ustunga sonlar yig‘indisini, ikkinchi ustunga sonlar ayirmasini yozing va ularning qiymatini toping:

48 − 20	45 + 40	55 − 20	35 + 10
34 + 20	99 − 60	46 + 30	67 − 10

13. Misollarning javobini toping:

60 + 12	97 − 7	58 − 40	20 + 14	37 − 5

14. Bir to‘pda 47 m gazlama bor edi. Bolalarga ko‘ylak tikish uchun 17 m, kattalarga ko‘ylak tikish uchun esa 10 m gazlama qirqib olindi. To‘pda necha metr gazlama qoldi?

15. Misollarni tushuntirib yeching:



16.

20 + 9 □ 30	36 − 6 □ 29	80 + 4 □ 79
45 − 5 □ 40	50 + 8 □ 68	79 − 9 □ 70

http://eduportal.uz

Qismlardan butunni, butundan bo‘laklarni hosil qilish

1. Qanday figuralar hosil bo‘ldi? Nomini ayting:

1)



2)

2. Bir o‘ramda 49 m sim bor edi. Bir ish kuni davomida 17 m sim qirqib olindi. O‘ramda necha metr sim qolgan?

3. O‘yla, izla, top!



4. Misollarni yeching:

90 − 30	60 − 20	60 − 40	40 − 10
70 − 10	70 − 50	60 − 30	50 − 20

http://eduportal.uz

5. Bolalar bog‘chasiga 30 kg piyoz va undan 27 kg ortiq kartoshka olib kelindi. Quyidagi ifodalar nimani bildiradi?

30 + 27 30 + (30 + 27)

6. O‘yla, izla, top!



7. Qushlar uchun bolalar ikki kunda 28 ta uycha yasashdi. Ular 8 ta uychani ilib qo‘yishdi. Bolalar yana nechta uychani ilishlari kerak?

8. Tarvuz necha bo‘lakka bo‘lingan?

9. 28 + 10 40 + 38 56 − 20

37 − 10 50 + 14 54 + 10

http://eduportal.uz

10. Do‘konda 59 ta televizor bor edi. Tushgacha 20 ta, tushlikdan keyin 9 ta televizor sotildi. Do‘konda sotiladigan yana nechta televizor qoldi?

11. Figuralar asosida berilgan misollarni yeching. Shu figuralardan hosil qilingan shakllarni daftaringizga chizing va bo‘laklari ichiga mos javoblarni yozing:



12. 1) O‘ylangan songa 60 ni qo‘shib, 98 hosil qilindi. Qanday son o‘ylangan?

2) O‘ylangan sonni 24 ta kamaytirib, 30 hosil qilindi. Qanday son o‘ylangan?

13. 29 − 9 20 + 20 57 − 10

30 + 7 75 − 10 46 + 10

14. Gul asosida berilgan misollarni yeching:



15. 30 + 7 54 − 40 65 + 10

http://eduportal.uz

Jadval. Sodda jadvallarni o‘qish

1. Jadval asosida misollar tuzing va uni yeching:

+	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11
2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13
4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14
5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15
6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16
7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17
8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18
9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19
10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	20

$1+1=2$

$2+\square=4$

$3+\square=6$

$4+\square=8$

$5+\square=10$

$6+\square=12$

$7+\square=14$

$8+\square=16$

$9+\square=18$

$10+\square\square=20$

2. Birinchi to‘pda 60 m, ikkinchi to‘pda undan 42 m kam gazlama bor. Ikkala to‘pda necha metr gazlama bor?

3. $92\square90$ | $52\square72$ | $40\square40$ | $50\square42$

4. Masala tuzing va uni yeching:

Bor edi – 76 kg pomidor

Tuzlandi – 34 kg pomidor

Qoldi – ? kg pomidor

5.

$60+40$	$50+50$	$62+30$
$80+20$	$83+10$	$50+46$
$56+40$	$70+20$	$70+30$

http://eduportal.uz

6. Jadvaldan foydalanib, misollarning qiymatini toping:

+	1	2	3	4
2				
4				
5				
6				

−	1	2	3	4
1	0			
2	1			
3	2	1		
4				

7. Bog‘ga 60 tup ko‘chat o‘tqazilgan. Ulardan 20 tupi olma, 30 tupi olcha, qolganlari esa jiyda ko‘chati. Bog‘ga necha tup jiyda ko‘chati o‘tqazilgan?

8. 1) 38, 42, 49, 50, 67, 83, 97 sonlaridan oldin kelgan sonlarni yozing;

2) 9, 19, 29, 59, 79, 99 sonlaridan keyin keladigan sonlarni yozing.

9. Sanoq cho‘plardan nechta kvadrat hosil qilingan? Sanoq cho‘plardan shunday bittasini olingki, natijada to‘rtta kvadrat qolsin.



10.

56 − □ = 50	58 − □ = 50	97 − □ = 90
30 + □ = 34	80 + □ = 85	70 + □ = 79
49 − □ = 40	43 − □ = 40	53 − □ = 50

11. Bir to‘pda 50 m mato bor edi. Undan 20 m mato qirqib olindi. To‘pda necha metr mato qoldi?

http://eduportal.uz

Berilgan ma’lumotlar asosida jadval to‘ldirish

1.

	99		98		97		96		95
		50		60		40		30	

2. Idishda 40 *l* yonilg‘i bor edi. Birinchi mashinaga 25 *l*, ikkinchisiga 10 *l* yonilg‘i quyilganidan keyin idishda necha litr yonilg‘i qoldi?

3. Rasm asosida masala tuzing va uni yeching:

va

30 kg 27 kg

o‘rik bor edi.

Ishlatildi – 20 kg Qoldi – ? kg

4. Jadval asosida berilgan misollarni yeching:

Kamayuvchi	90	50	80	40	70	30	60
Ayriluvchi	20	30	40	20	10	20	50
Ayirma							

5.

55 + 20	84 − 14	83 + 7	45 − 40
65 + 10	95 − 30	24 + 3	24 − 10

http://eduportal.uz

1. Misollarning yechilishini tushuntiring:

35 + 42 = 30 + 5 + 40 + 2 = 70 + 7 = 77

24 + 31 = 20 + 4 + 30 + 1 = 50 + 5 = 55

Ikki xonali sonlarni qo‘shishda o‘nliklar o‘nliklarga, birliklar birliklarga qo‘shiladi.

2. Misollarning yechilishini tushuntiring:

38 − 17 = □□
30 − 10 = 20
8 − 7 = 1
20 + 1 = 21
38 − 17 = 21

38 − 17 = □□
38 − 10 = 28
28 − 7 = 21
38 − 17 = 21

Ikki xonali sonlarni ayirishda o‘nliklar o‘nliklardan, birliklar birliklardan ayiriladi.

3. Jadvaldan javobi bir xil bo‘lgan misollarni toping:

38 + 12	57 − 22	45 + 45	53 − 50
99 − 9	18 + 12	56 − 16	48 + 30
20 + 20	69 − 2	80 + 17	98 − 20

4. 30 va 20 sonlarining yig‘indisi 50 ga teng. Yig‘indi birinchi qo‘shiluvchidan nechta ortiq. Ikkinchi qo‘shiluvchidan-chi?

5. 34 + 13 62 + 16 54 + 25

42 + 25 44 + 33 32 + 24

http://eduportal.uz

100 sonidan bir xonali sonni ayirish

100 − 8 = □□

1. Yechishni tushuntiring:

100 − 8 = □□
10 + 90 = 100
10 − 8 = 2
90 + 2 = 92
100 − 8 = 92



100 sonidan 8 ni ayirish kerak. 100 – bu 10 ta o‘nlik. Bitta o‘nlikni olamiz. Bitta o‘nlikdan 8 ta birlikni ayirsak, 2 ta birlik qoladi. 9 ta o‘nlik va 2 ta birlik 92 bo‘ladi.

2. Yechishni tushuntirib, javoblarini toping:

100 − 4 | 100 − 7 | 100 − 2 | 100 − 5

3. Do‘konda 100 ta qandil bor edi. Tushgacha 9 ta qandil sotildi. Do‘konda sotiladigan nechta qandil qoldi?

4. Hisoblang:





http://eduportal.uz

100 sonidan ikki xonali sonni ayirish

100 − 72 = □□

1. Yechishni tushuntiring:

100 − 72 = □□

10 + 90 = 100
10 − 2 = 8
90 − 70 = 20
20 + 8 = 28

100 − 72 = 28



9 ta o‘nlik **1 ta o‘nlik**

100 sonidan 72 ni ayirish kerak. 100 – bu 10 ta o‘nlik. Bitta o‘nlikni olamiz. Bir o‘nlikdan 2 ni ayirsak, 8 qoladi. Bizda 9 ta o‘nlik qolgan edi.
9 o‘nlik − 7 o‘nlik = 2 o‘nlik
2 o‘nlik va 8 birlik 28 bo‘ladi.

2. Yechishni tushuntirib, javoblarini toping:

100 − 36	100 − 57	100 − 62
100 − 42	100 − 24	100 − 56

3. Do‘konga 100 dona patir non keltirildi. Tushgacha 82 tasi sotildi. Sotiladigan yana nechta patir non qoldi?

4. Taqqoslang:

100 □ 90 | 29 □ 92 | 49 □ 49 | 65 □ 56

http://eduportal.uz

Uchinchi qo‘shiluvchini topish

1. Rasm asosida masala tuzing va uni yeching:

12 kg 10 kg ? kg

30 kg

2. Uchta idishda hammasi bo‘lib 95 *l* yonilg‘i bor. Birinchi idishda 40 *l*, ikkinchi idishda 35 *l* yonilg‘i bo‘lsa, uchinchi idishda necha litr yonilg‘i bor?

3.

Qo‘shiluvchi	26	42	44	51	62	12	45	40
Qo‘shiluvchi	54	20	46	28	24	78	25	30
Yig‘indi								

4. Xo‘jalikdan tegirmonga 50 qop bug‘doy, undan 8 qop kam arpa olib kelindi. Tegirmonga hammasi bo‘lib necha qop don olib kelingan?

5.

80 + ◯ = 90 49 − ◯ = 24

◯ − 33 = 25 ◯ + 20 = 58

57 + ◯ = 67 60 − ◯ = 20

http://eduportal.uz

6. Tovuqlarni boqish uchun bir haftada 28 kg don, g‘ozlarni boqish uchun esa undan 11 kg kam don sarflanadi. Tovuq va g‘ozlarni boqish uchun necha kilogramm don sarflanadi?



7. Rasm asosida masala tuzing va uni yeching:

8. Qavslarni shunday qo‘yingki, tenglik to‘g‘ri bo‘lsin.

$80-20+7=67$ $\qquad$ $30-7+3=20$

9.

$46+43$	$95-35$	$100-52$
$71+29$	$68-24$	$100-37$
$20+45$	$86+13$	$100-62$

http://eduportal.uz

10. Rasm bo‘yicha masala tuzing va uni yeching:



36 ta

11. Uchta sonning yig‘indisi 78. Birinchi son 32, ikkinchi son 26. Uchinchi son-ni toping.

12.

28 + ◯ = 38 ◯ − 20 = 48

◯ − 6 = 50 25 + ◯ = 75

57 + ◯ = 67 ◯ − 30 = 38

13. Jadval asosida masala tuzing va uni yeching:

Bor edi	Keltirildi	Bo‘ldi
40 qop sabzi	Yana 40 qop sabzi	? qop sabzi

14. Qulay usul bilan hisoblang:

67 + 13 25 + 25 25 + 45

28 + 62 83 + 17 86 + 14

http://eduportal.uz

Ketma-ketlikni davom ettirish

1. Misollarni namunaga qarab yeching:

$100 - 43 = (100 - 40) - 3 = 60 - 3 = 57$

40 3

$100 - 65$	$100 - 52$	$100 - 78$
$100 - 36$	$100 - 25$	$100 - 47$

2. Omborda 90 qop un bor edi. Tushgacha 30 qop, tushlikdan keyin 32 qop un sotildi. Omborda necha qop un qoldi?

3. Misollarni tushuntirib yeching:



4. Figuralarni daftaringizga chizing. O‘xshash figuralarni bir xil rangga bo‘yang:



5.

$69 + 21$	$27 + 20$	$66 - 26$	$50 + 36$
$57 + 43$	$39 - 29$	$72 - 32$	$96 - 46$

http://eduportal.uz

6. Misollarni tushuntirib yeching:



7. Shaxmat-shashka to‘garagiga 32 nafar o‘g‘il va ulardan 15 nafar ortiq qiz bola qatnashdi. To‘garakka necha nafar qiz bola qatnashdi? (Masalaga shunday savol qo‘yingki, u ikki amal bilan yechiladigan bo‘lsin.)

8. Misollarning javobini toping:



9. Berilgan rasm asosida masala tuzing va uni yeching:

va

26 kg
Tuzlandi – 30 kg

24 kg
Qoldi – ? kg

10.

26 + 14	52 – 20	54 + 16	39 – 19
47 – 17	38 + 30	68 – 28	25 + 15

http://eduportal.uz

11. Misollarni namuna bo‘yicha bajaring:

21 + 21 = 42	32 + □□ = 64	42 + □□ = 84
22 + □□ = 44	33 + □□ = 66	43 + □□ = 86
24 + □□ = 48	34 + □□ = 68	44 + □□ = 88

12. Chelakda 28 kg olcha bor edi. 20 kg olchadan murabbo tayyorlandi. Chelakda necha kilogramm olcha qoldi?

13. Ranglarga qarab, guruhlarga bo‘lingan holda misollarni yeching:

46 + 4	58 − 55	32 + 28	58 − 27
74 + 26	64 + 30	60 − 4	47 + 2
60 − 42	42 + 25	50 + 36	25 − 15

14. «Matiz» avtomobilining bakida 39 *l*, «Neksiya» avtomobilining bakida esa bundan 16 *l* ortiq yonilg‘i bor. Ikkinchi avtomobilning bakida necha litr yonilg‘i bor?

15. 18 nafar bola o‘ynayotgan edi. Dastlab 5 nafar qiz bola, keyin 3 nafar o‘g‘il bola uyiga ketdi. O‘yinda necha nafar bola qoldi?

16.

21 + 16	49 − 30	40 + 25	87 − 27
38 − 18	56 + 12	69 − 39	72 + 14

http://eduportal.uz

Mantiqiy tushunchalar: «barchasi», «ayrimlari», «...dan tashqari barchasi»...

1. Rasmda berilgan barcha narsalarning nomini ayting. Ularni bir so‘z bilan nima deb aytish mumkin?

2. Bitta qo‘ydan 7 kg, boshqasidan undan 3 kg ortiq jun qirqib olindi. Ikkala qo‘ydan hammasi bo‘lib necha kilogramm jun qirqib olingan?

3. Ifodalarning qiymatini toping. Raqamlar joylashuvidagi o‘ziga xoslikni tushuntiring.

53 + 41	62 + 21	54 + 45	32 + 26
35 + 14	26 + 12	45 + 54	23 + 62

4. Figuralarning nomlarini aytib bering:





5. (30 + 20) − 10 (90 − 40) + 30

(80 − 50) + 20 (20 + 20) − 20

http://eduportal.uz

«har qanday», «ixtiyoriy», «...lardan biri», «barchasidan biri» va ularning ma’nolari

1. Rasmda tasvirlangan barcha narsalarning nomini ayting. Ularni bir so‘z bilan nima deb aytish mumkin?

Siz ham shunday ixtiyoriy to‘plam tuzing.

2. Maktab sport to‘garagi uchun 40 ta shaxmat va shashka keltirildi. Ulardan 20 tasi shaxmat bo‘lsa, nechta shashka keltirilgan?

3.

86 − 23	97 − 43	67 − 45	58 − 26
68 − 32	79 − 34	76 − 54	85 − 62

4. Masala tuzing va uni yeching:

1-mashinada – 54 qop piyoz
2-mashinada – 46 qop piyoz
?, qop

5. Qanday 4 ta bir xil qo‘shiluvchilarning yig‘indisi 100 bo‘ladi?

6.

80 sm − 50 sm	40 dm + 30 dm
30 dm + 30 dm	90 sm − 70 sm

http://eduportal.uz

7. Barchasining nomini ayting va ularni bir so‘z bilan nima deb aytish mumkin?

8. Oshxonaga 45 *l* sut keltirildi. Sutning bir qismi ishlatilgandan so‘ng 30 *l* sut qoldi. Necha litr sut ishlatilgan?

9. Ranglarga qarab, guruhlarga bo‘lingan holda misollarni yeching:

37 + 3	48 − 40	60 + 23	58 − 30
67 − 20	71 + 10	90 − 30	45 + 20
83 + 10	78 − 20	88 + 10	98 − 30

10. 1) 2, 7, 9 raqamlari yordamida 9 ta ikki xonali sonni yozish mumkin: 22, 27, 29, 72, 77, 79, 92, 97, 99;

2) 5, 1, 4 raqamlari yordamida hosil qilish mumkin bo‘lgan barcha ikki xonali sonlarni yozing.

11.

34 + 6	21 + 9	35 + 5	15 + 5
34 + 26	29 + 21	35 + 15	75 + 15

http://eduportal.uz

Berilgan uzunlikdagi kesmani yasash. Uzunlik va masofalarni o‘lchash hamda chamalash

1. Chizg‘ich yordamida har bir kesmaning uzunligini santimetr va millimetrlarda aniqlang:

2. Yo‘lakning uzunligi 30 m. Said va Umid yo‘lakning ikki boshidan bir-biriga qarab yurdi. Ular uchrashguncha Said 16 m yurdi. Umid uchrashguncha qancha yurgan?



3.

54 + 46	74 + 26	83 + 17	62 + 38
58 + 42	71 + 29	87 + 13	65 + 35

4. Birinchi kesmaning uzunligi 5 sm, ikkinchi kesma undan 4 sm uzun, uchinchi kesma ikkinchi kesmadan 6 sm qisqa. Uchinchi kesmaning uzunligini toping.

5. Ikkita qo‘shni qo‘shiluvchini yig‘indi bilan almashtirib, qulay usul bilan yeching:

50 + 20 + 8 90 − 40 + 7 38 + 30 − 4

6.

30 + (6 + 3)	40 + (9 − 2)	50 + (6 + 2)
80 + (7 + 2)	50 + (8 − 4)	70 + (9 − 5)

http://eduportal.uz

7. Kesmalarning uzunliklarini taqqoslang:



8. Gulnora bilan Dilnoza yo‘lkaning ikki boshidan bir-birlariga qarab yurdilar. Ular uchrashguncha Gulnora 42 m, Dilnoza undan 4 m ortiq yurdi. Yo‘lkaning uzunligi qancha?



9.

54 − 46	62 + 44	87 − 17	83 − 63
85 + 15	92 − 22	67 + 23	75 + 15

10. Javobi 100 chiqishi uchun qaysi tomondan yurish kerak?



11. Qovoq 9 kg, qovun undan 3 kg kam. Qovunning massasi necha kilogramm?

http://eduportal.uz

12. Birinchi kesmaning uzunligi 7 sm, ikkinchi kesma undan 4 sm uzun, uchinchi kesmaning uzunligi ikkinchi kesmaning uzunligidan 2 sm qisqa. Uchinchi kesmaning uzunligini toping:



13. Uydan non do‘koniga yo‘lka orqali yoki ko‘prikdan o‘tib borish mumkin. Qaysi yo‘l qisqa va qancha qisqa?



14. 39 kg meva bor edi. Murabbo tayyorlash uchun 20 kg, sharbat tayyorlash uchun 9 kg meva ishlatildi. Necha kilogramm meva ortib qoldi?

15. Qanday figuralarni ko‘rayapsiz?





16.

98 − 20	94 − 93	67 − 32
76 + 23	100 − 62	72 + 23

http://eduportal.uz

Turli figuralar yasash. Bo‘laklardan shakllar va figuralar hosil qilish

1. Bo‘laklardan qanday shakl hosil bo‘ldi?



2. Do‘konda 32 kg sariyog‘ bor edi. Yana 17 kg sariyog‘ keltirildi. Bir kunda 29 kg sariyog‘ sotildi. Do‘konda qancha sariyog‘ qoldi?

3. Kvadrat qismlaridan shunday shakllar yasang:



4. Maktab bog‘iga 26 tup chinnigul va 24 tup rayhon olib kelindi. Maktab bog‘iga hammasi bo‘lib necha tup gul olib kelingan?

5.

21 + 21	32 + 32	14 + 14
24 + 24	42 + 42	33 + 33
44 + 44	13 + 13	22 + 22

http://eduportal.uz

6. Bo‘laklardan qanday figura hosil bo‘ldi?



7. 1) Birinchi qutida 26 ta, ikkinchi qutida esa undan 4 ta ortiq konfet bor. Ikkinchi qutida nechta konfet bor?

2) Birinchi qutida 26 ta, ikkinchi qutida esa undan 4 ta ortiq konfet bor. Ikkala qutida nechta konfet bor?

8.

80 + ◯ = 87	53 − ◯ = 50
◯ − 5 = 30	◯ + 24 = 48
90 + ◯ = 98	46 − ◯ = 40

9. Shakllarni taqqoslang:



10.

20 + 8 ☐ 30	35 − 5 ☐ 43	80 + 2 ☐ 82
69 − 9 ☐ 50	90 + 3 ☐ 81	47 − 7 ☐ 40
40 + 5 ☐ 45	96 − 6 ☐ 85	70 + 7 ☐ 55

http://eduportal.uz

Qiziqarli masalalar yechish

1. Chizma asosida masala tuzing va uni yeching:

1)



2)



2. Rasm to‘garagiga 18 nafar o‘quvchi qatnashar edi, keyin yana 10 nafar o‘quvchi qo‘shildi. Ammo 4 nafar o‘quvchi boshqa to‘garakka o‘tib ketdi. Rasm to‘garagida nechta o‘quvchi qoldi?

3.

Kamayuvchi	100	99	86	46	94	56
Ayriluvchi	10	49	20	24	31	32
Ayirma						

4. Ifodalarning qiymatini hisoblang:

33 + 16	42 + 37	54 + 33
87 − 25	79 − 38	95 − 52

http://eduportal.uz

5. Bo‘yoqchilar bir kunda 38 ta romni bo‘yashi kerak edi. Ular tushgacha 28 ta romni bo‘yashdi. Bo‘yoqchilar yana nechta romni bo‘yashlari kerak?

6. Hisoblang:





7. Sinfda hammasi bo‘lib 32 nafar o‘quvchi bor. Darsga 10 nafar qiz va 20 nafar o‘g‘il bola keldi. Darsga necha nafar o‘quvchi qatnashmadi?

8. Jadval asosida masala tuzing va uni yeching:

Bor edi	Keltirildi	Bo‘ldi
40 litr yonilg‘i	Yana 40 litr yonilg‘i	? litr yonilg‘i

9. Misollarning yechilishini tushuntiring:

53 − 23 + 27 − 17 + 40 = ?

10. 97 − 7 32 + 6 68 − 60

43 + 7 72 − 10 87 − 80

http://eduportal.uz

O‘tilganlarni takrorlash

1. Maktab ustaxonasi uchun 15 ta qo‘larra va undan 3 ta kam randa sotib olindi. Maktab ustaxonasi uchun hammasi bo‘lib nechta duradgorlik asbobi sotib olingan?

2. Misollarning javobini o‘sib borish tartibida joylashtiring:



3.

50 + ◯ = 57	94 − ◯ = 90
◯ − 22 = 22	◯ + 14 = 64
48 + ◯ = 60	30 − ◯ = 10

4. O‘yla, izla, top!



5.

32 + 18	54 − 50	50 + 50
72 − 70	74 + 26	87 − 80

https://eduportal.uz

6. Do‘konga sotish uchun 76 ta ikki va uch g‘ildirakli velosiped olib kelindi. Uch g‘ildirakli velosipedlar 34 ta bo‘lsa, ikki g‘ildirakli velosipedlar nechta?

7. Tez hisoblang:



8. Nechta uchburchak va to‘rtburchak bor?



9.

67 + 32	69 − 40	23 + 17
48 − 45	96 − 50	27 + 13

10. 9 ta o‘nlik va 7 ta birlikdan, 8 ta o‘nlik va 5 ta birlikdan iborat sonni yozing.

http://eduportal.uz

MUNDARIJA

Narsalarning to‘plamlari. 3
1 dan 10 gacha bo‘lgan sonlarning 11
1 dan 5 gacha bo‘lgan sonlarni 15
6 dan 9 gacha bo‘lgan sonlarni 22
1 dan 10 gacha bo‘lgan sonlarni 31
Vaqt tasavvurlari 32
Juft va toq sonlar 34
Nuqta. To‘g‘ri chiziq kesmasi. 35
Nol ishtirokida qo‘shish va ayirish 37
Qo‘shishning hadlari 39
Ayirishning hadlari 40
Qo‘shish va ayirish amallarining 41
11 dan 100 gacha bo‘lgan sonlar. 48
Qavslar 54
Sonlarni o‘nlikdan o‘tib qo‘shish 56
Sonlarni o‘nlikdan o‘tib ayirish 63
21 dan 100 gacha bo‘lgan sonlarni 73
O‘nliklar bilan sanash 81
Uzunlik va uning birligi: santimetr 83
Burchak va uning turlari 90
Ko‘pburchaklar 91
Masalalar yechishni o‘rganamiz. 94
Ikki amalli masalalar 97
Massa o‘lchov birligi: kilogramm 101
Sig‘im o‘lchov birligi: litr 103
Narsaning oynadagi aksi 106
Sodda yassi va fazoviy figuralar 114
Uzunlik birliklari: detsimetr, metr. 119
Sonli ifodalar 126
Tarkibli masalalar 129
Qismlardan butunni, butundan 132
100 sonidan bir xonali sonni ayirish 139
100 sonidan ikki xonali sonni ayirish 140

http://eduportal.uz

Uchinchi qo‘shiluvchini topish 141
Ketma-ketlikni davom ettirish. 144
Mantiqiy tushunchalar: «barchasi», ... 147
Berilgan uzunlikdagi kesmani yasash. 150
Turli figuralar yasash. 153
Qiziqarli masalalar yechish 155

Ahmedov M. va boshq.

A 98 **Matematika.** Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 1-sinfi uchun darslik (M. Ahmedov, N. Abdurahmonova, M. Jumayev). — T.: «Turon-Iqbol» nashriyoti, 2019. — 160 bet.

ISBN 978-9943-14-058-5

UO‘K:372.851(075)
51(075)
KBK 22.1ya71

MAHAMADJON AHMEDOV,
NABIYA ABDURAHMONOVA, MAMANAZAR JUMAYEV

O‘quv nashri

MATEMATIKA

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining
1-sinfi uchun darslik

O‘n uchinchi nashr

(o‘zbek tilida)

«TURON-IQBOL»
Toshkent, 100011. Navoiy ko‘chasi, 30-uy.

Toshkent – 2019

Muharrir H. Zakirova
Badiiy muharrir E. Abdikayirova
Texnik muharrir A. Yuldasheva
Musahhih S. Alimboyeva
Kompyuterda sahifalovchi A. Muhammadiyev

Nashriyot litsenziyasi AI №223, 16.11.2012.
Bosishga 7-mart 2019-yilda ruxsat etildi. Bichimi 70x100 1/16. Ofset bosma.
«Arial» garniturasi. Shartli b.t. 12,9. Hisob-nashriyot t. 13,52.
Adadi 533 762 nusxa. 19-249-raqamli buyurtma.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining
«O‘zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi.
100011, Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30.

http://eduportal.uz